YEVROPA RANGTASVIRIDA IMPRESSIONIZMDAN EKSPRESSIONIZMGA ÖTIŞ JARAYONI VA EDVARD MUNK IJODINING BADIIY XUSUSIYATLARI

Muhammadiyeva Zarina Bohodirovna
Termiz davlat universiteti öqituvçisi
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.24368244

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrning ikkinçi yarmi va XX asr boşlarida Yevropa rangtasvirida yuzaga kelgan impressionizm va ekspressionizm yönalişlarining badiiy-estetik xususiyatlari, ularning özaro aloqadorligi hamda tasviriy san'at taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, norvegiyalik rassom Edvard Munk ijodining şakllaniş bosqiçlari, dastlabki asarlarida impressionistik va postimpressionistik izlanişlarning namoyon bölişi, keyinçalik esa ekspressionistik ifoda usulining rivojlanişi örganiladi. Rassomning « kasal bola», «Qiçqiriq», «Melanxoliya», «Madonna» va «Hayot raqsi» asarlari rang, kolorit, kompozitsiya, çiziq va psixologik mazmun nuqtayi nazaridan san'atşunoslik tahliliga tortiladi. Şuningdek, Munk ijodining Yevropa modernistik san'ati va ekspressionizm taraqqiyotidagi örni asoslab beriladi.

Kalit sözlar: impressionizm, ekspressionizm, Edvard Munk, Yevropa rangtasviri, modernizm, kolorit, rang psixologiyasi, kompozitsiya, badiiy obraz, deformatsiya, simvolizm, ruhiy keçinma.

THE TRANSITION FROM IMPRESSIONISM TO EXPRESSIONISM IN EUROPEAN PAINTING AND THE ARTISTIC FEATURES OF EDVARD MUNCH'S WORK

Muhammadiyeva Zarina Bohodirovna
Lecturer at Termiz State University
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.24368244

Abstract: This article examines the transition from Impressionism to Expressionism in European painting during the late nineteenth and early twentieth centuries, focusing on the artistic çaracteristics of Edvard Munch's work. It explores the aesthetic principles of Impressionism, its influence on subsequent artistic movements, and the emergence of Expressionism as a new approach to visual representation. Particular attention is given to Munch's artistic development, his distinctive use of colour, line, composition, and expressive deformation. The article also analyses selected works, including The Scream, Melançoly, Madonna, and The Dance of Life, highlighting how the artist conveyed psychological tension, emotional experiences, and the inner world of the individual. The study emphasizes Munch's contribution to the formation and development of Expressionism in European art.

Keywords: European painting, Impressionism, Expressionism, Edvard Munch, The Scream, colour, composition, artistic expression, psychological experience, modern art.

Kiriş: XIX asrning ikkinçi yarmi va XX asr boşlarida Yevropa tasviriy san'atida yuz bergan badiiy özgarişlar rangtasvirning mazmuniy va ifodaviy imkoniyatlarini tubdan kengaytirdi. Uşbu davrda akademik san'atning an'anaviy qonuniyatlari qayta körib çiqilib, rassomning individual dunyoqaraşi, borliqni subyektiv idrok etişi va hissiy keçinmalarini tasvirlaşga asoslangan yangi badiiy yönalişlar şakllandi. Impressionizm, postimpressionizm, simvolizm va ekspressionizm ana şu tarixiy jarayonning muhim bosqiçlari hisoblanadi.

Impressionizm rangtasvirda yoruğlik, rang va atmosfera özgarişlarini bevosita kuzatiş asosida ifodalaşga e'tibor qaratgan bölsa, keyingi modernistik yönalişlarda tasvirning içki mazmuni, ramziy

mohiyati va psixologik ta'siri ustuvor ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, ekspressionizmda rassomning borliq haqidagi individual munosabati va ruhiy keçinmalari badiiy obrazning asosiy mazmuniy omiliga aylandi.

Norvegiyalik rassom Edvard Munk (1863–1944) uşbu badiiy jarayonni öz ijodida mujassam etgan muhim san'atkorlardan biridir. Uning dastlabki ijodida realizm va impressionizm ta'siri sezilsa-da, keyinçalik rang, çiziq va şaklning hissiy imkoniyatlariga asoslangan individual uslub şakllandi. Munk ijodi orqali Yevropa rangtasvirida taşqi borliqni tasvirlaşdan inson ruhiyatini badiiy ifodalaşga tomon keçgan jarayonni kuzatiş mumkin.

Impressionizm va ekspressionizmning badiiy-estetik xususiyatlari

Impressionizm XIX asrning 70-yillarida Fransiyada şakllangan bölib, Yevropa rangtasvirida yangi estetik qaraşlarning rivojlanişiga asos yaratdi. Uşbu yönalişning şakllanişida Klod Mone, Ogyust Renuar, Kamil Pissarro, Edgar Dega va Alfred Sisley kabi rassomlarning ijodi muhim ahamiyatga ega böldi.

Impressionistlarning asosiy badiiy tamoyili borliqni özgarmas va aniq şaklda tasvirlaşdan köra, muayyan lahzadagi yoruğlik va rang munosabatlarini aks ettirişdan iborat edi. Ular tabiatning turli yoruğlik şaroitlarida özgarişini, predmetlar yuzasidagi rang reflekslarini va atmosfera holatini çuqur kuzatdilar. Natijada rangtasvirda an'anaviy tus munosabatlari bilan bir qatorda ranglarning optik ta'siriga asoslangan yangi tasviriy usullar rivojlandi.

Impressionizmning muhim xususiyatlaridan biri oçiq havoda işlaş — plein air amaliyotining keng tarqalişi böldi. Rassomlar tabiatni bevosita kuzatiş orqali yoruğlik va rangning özgaruvçanligini örgandilar. Möyqalam zarbalarining erkinligi, ranglarning nisbatan sof holda qöllanişi va soyalarni rangli munosabatlar orqali ifodalaş uşbu yönalişning asosiy texnik belgilariga aylandi.

Klod Monening «Taassurot. Quyoş çiqişi» (1872) asari impressionizmning estetik mohiyatini namoyon etuvçi muhim namunadir. Unda port manzarasi aniq kontur va batafsil tasvirdan köra, yoruğlik, rang va atmosfera munosabatlari orqali ifodalangan. Rassomning «Ruan sobori» turkumida esa bir xil me'moriy obyektning turli vaqt va yoruğlik şaroitlarida özgarişi tadqiq etilgan. Bu tajribalar rangning mustaqil badiiy qiymatini oçib berdi.

Impressionizmning keyingi taraqqiyoti postimpressionizm va boşqa modernistik oqimlarning yuzaga kelişiga zamin yaratdi. Vinsent van Gog, Pol Gogen va Pol Sezann ijodida rang va şaklning yangi imkoniyatlari namoyon böldi. Xususan, Van Gog rang va möyqalam harakatini hissiy ifoda vositasiga aylantirgan bölsa, Gogen ranglarning ramziy va dekorativ imkoniyatlarini kengaytirdi. Sezann esa şaklning konstruktiv tuzilişiga alohida e'tibor qaratdi.

XX asr boşlariga kelib Yevropa san'atida ekspressionizmning rivojlanişi rangtasvirning mazmuniy yönalişini yanada özgartirdi. Ekspressionizmda taşqi borliqning tabiiy körinişini aniq takrorlaşdan köra, insonning içki dunyosi va hissiy holatini ifodalaş asosiy vazifaga aylandi. Ranglarning tabiiy holatidan çekiniş, şakllarning deformatsiyalanişi, keskin kontrastlar va dinamik çiziqlar tasvirning psixologik ta'sirini kuçaytiruvçi vositalar sifatida qöllanildi.

1905-yilda Germaniyada taşkil etilgan «Die Brücke» va 1911-yilda şakllangan «Der Blaue Reiter» guruhlari ekspressionizm taraqqiyotining muhim markazlariga aylandi. Biroq ekspressionistik qaraşlarning badiiy asoslari uşbu guruhlar paydo bölişidan oldinroq, Van Gog va Edvard Munk singari rassomlarning ijodida şakllana boşlagan edi.

Şu nuqtayi nazardan, impressionizm va ekspressionizm örtasidagi munosabatni faqat uslubiy qarama-qarşilik sifatida emas, balki rangtasvirning ifodaviy imkoniyatlari kengayib borişi bilan boğliq tarixiy jarayon sifatida baholaş lozim.

Edvard munk ijodining şakllanişi va dastlabki badiiy izlanişlari

Edvard Munk 1863-yil 12-dekabrda Norvegiyaning Lyoten hududida tuğilgan. Uning bolalik davri oilaviy yöqotişlar va soğliq bilan boğliq qiyinçiliklar ta'sirida keçgan. Onasi Laura 1868-yilda, opasi Sofi esa 1877-yilda sil kasalligidan vafot etgan. Uşbu voqealar rassomning dunyoqaraşi va ijodiy tafakkuriga çuqur ta'sir körsatgan.

Munkning dastlabki ijodiy şakllanişida realizm, naturalizm va impressionizmning ta'siri seziladi. 1881-yilda Xristianiyadagi Qirollik rasm çiziş maktabiga öqişga kirişi uning professional ta'lim olişidagi muhim bosqiç böldi. Bu davrda u Kristian Krox rahbarligida tahsil oldi va zamonaviy Yevropa san'atidagi badiiy izlanişlar bilan tanişa boşladi.

1885-yilda Fransiyaga qilgan safari va keyinçalik Parijda bölişi uning rangtasvirga bölgan qaraşlarini kengaytirdi. U impressionizm va puantilizm namoyandalarining asarlarini örgandi, yoruğlik, rang va tasviriy şakl bilan boğliq tajribalar olib bordi. Biroq Munk uçun rangtasvirning asosiy vazifasi taşqi taassurotni qayd etiş bilan çeklanmas edi. U insonning xotirasi, içki keçinmalari va ruhiy holatini ifodalaşga tobora köproq e'tibor qaratdi.

Uning 1885–1886-yillarda yaratgan «kasal bola» asari uşbu ijodiy izlanişlarning muhim namunasi hisoblanadi. Asar rassomning opasi Sofi kasalligi bilan boğliq xotiralari asosida yaratilgan. Kompozitsiyada kasal qiz va uning yonida ötirgan ayol obrazi orqali qayğu, iztirob va ayriliq hissi ifodalangan.

Asarning badiiy tahlilida, avvalo, rang va fakturaning özига xos işlanişiga e'tibor qaratiş lozim. Munk silliq akademik işlovdan çekinib, xolst yuzasida erkin, notekis va özaro kesişuvçi möyqalam zarbalaridan foydalangan. Natijada tasvirning taşqi şakli bilan birga uning hissiy mazmuni ham kuçaygan. Bu jihat asarni oddiy voqea tasviridan psixologik mazmunga ega badiiy obraz darajasiga olib çiqadi.

"Kasal bola" asarida impressionizmga xos rangtasvir erkinligi mavjud bölsa-da, uning mazmuniy markazida rassomning şaxsiy xotirasi va ruhiy keçinmalari turadi. Şu sababli asar Munkning keyingi ekspressionistik uslubiga olib borgan muhim ijodiy bosqiç sifatida baholanadi.

Munkning 1890-yillarga kelib şakllangan individual uslubida çiziqlarning ifodaviyligi, ranglarning ramziy mazmuni va kompozitsiyaning psixologik ta'siri ustuvorlik qila boşladi. Rassom borliqni aynan körganidek tasvirlaşdan köra, uni xotira va hissiy idrok orqali qayta talqin qilişga intildi. Uning «Men körganimni emas, körganlarimni tasvirlayman» mazmunidagi ijodiy qaraşi uşbu yondaşuvni ifodalaydi.

"Hayot frizi" turkumi va munk ijodida inson ruhiyatining talqini

Munk ijodining muhim konseptual yönalişlaridan biri «Hayot frizi» (The Frieze of Life) turkumidir. Rassom uşbu turkum ustida asosan 1890-yillardan boşlab işlagan. Unda inson hayotining asosiy bosqiçlari — muhabbat, iztirob, yolğizlik, raşk, qörquv va ölim mavzulari yagona badiiy ğoya asosida birlaştirilgan.

«Hayot frizi» turkumining özига xosligi şundaki, undagi asarlar alohida kompozitsiyalar bölişiga qaramay, umumiy falsafiy mazmun bilan özaro boğlangan. Munk inson hayotini faqat taşqi voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki ruhiy keçinmalar va içki ziddiyatlar majmui sifatida talqin qiladi.

1893-yilda yaratilgan "Qiçqiriq" (The Scream) asari rassom ijodining eng maşhur namunasi bölib, ekspressionistik rangtasvirning muhim badiiy timsollaridan biri hisoblanadi.

"PRIVATE PERSON" mazkur asarning kompozitsion tuzilişida egri va tölqinsimon çiziqlarning özaro harakati asosiy ifoda vositasi sifatida namoyon böladi. Köprikning töğri çiziqli konstruksiyasi bilan osmon va tabiatdagi egri şakllar örtasidagi qarama-qarşilik kompozitsion ziddiyatni kuçaytiradi. Oldingi plandagi inson qiyofasining soddalaştirilişi va deformatsiyalanişi esa uning ruhiy holatini umumlaştirilgan obraz darajasiga olib çiqadi.

Asarning koloritida qizil, sariq va töq sariq ranglarning kökimtir tuslar bilan qarama-qarşi qöyilişi kuçli vizual taranglikni yuzaga keltiradi. Ranglar tabiatning realistik körinişini ifodalaşdan köra, asarning hissiy mazmunini kuçaytirişga xizmat qiladi. Şu jihatdan «Qiçqiriq» rang va çiziqning mustaqil psixologik ifoda vositasiga aylanganini namoyon etadi.

Munkning «Melanxoliya» (1891–1896) asarida esa insonning içki keçinmalari va taşqi muhit örtasidagi munosabat boşqa badiiy yeçimda namoyon böladi. Kompozitsiyaning oldingi qismida öyçan holatda tasvirlangan inson, orqa fonda esa dengiz va qirğoq manzarasi joylaşgan. Fazoviy masofa va

ranglar munosabati obrazning ruhiy holatini oçişga xizmat qiladi. Tabiat bu yerda mustaqil manzara emas, balki inson keçinmalarining badiiy davomidek talqin qilinadi.

«Madonna» (1894–1895) asarida Munk inson hayoti, muhabbat va mavjudlik mavzularini ramziy obrazlar orqali ifodalaydi. Unda ayol obrazi an'anaviy diniy ikonografiyadan farqli ravişda, murakkab psixologik va ramziy mazmun kasb etadi. Ranglarning dekorativ uyğunligi, şakllarning soddalaştirilişi va obrazning umumlaştirilgan talqini rassomning simvolistik hamda ekspressionistik izlanişlarini namoyon qiladi.

«Hayot raqsi» (1899–1900) asarida esa inson hayotining turli bosqiçlari va muhabbat munosabatlari ramziy kompozitsiya orqali yoritilgan. Ayol obrazlarining oq, qizil va qora liboslarda tasvirlanişi hayotning turli holatlari, vaqt va insoniy munosabatlarning ötkinçiligi bilan boğliq mazmunni ifodalaydi. Ranglar örtasidagi qarama-qarşilik nafaqat dekorativ vazifani, balki asarning mazmuniy tuzilişini ham belgilaydi.

Mazkur asarlar tahlili Munk ijodida inson ruhiyatini ifodalaş rangtasvirning asosiy maqsadiga aylanganini körsatadi. Rassomning badiiy yondaşuvi ekspressionizmning muhim tamoyillaridan biri — taşqi şaklni içki keçinmaga böysundiriş tamoyili bilan uyğunlaşadi.

Munk ijodida kolorit, çiziq va kompozitsiyaning ifodaviy ahamiyati

Edvard Munkning individual uslubini belgilovçi asosiy omillardan biri rangning psixologik va ramziy imkoniyatlaridan foydalanişidir. Uning asarlarida rang predmetning tabiiy tusini körsatiş bilangina çeklanmay, obrazning hissiy mazmunini oçişga xizmat qiladi.

Munk koloritida iliq va sovuq ranglar qarama-qarşiligi muhim örin tutadi. Qizil, sariq va töq sariq ranglar ayrim kompozitsiyalarda kuçli hissiy zöriqiş va dinamikani yuzaga keltirsa, kök, yaşil va binafşa tuslar sokinlik, yolğizlik yoki melanxolik kayfiyatni kuçaytiradi. Biroq ranglarning mazmuni alohida holda emas, balki butun kompozitsiya va obrazlar tizimi bilan boğliq ravişda şakllanadi.

Rassomning çiziq bilan işlaş uslubi ham alohida tahlilga loyiq. Munk asarlaridagi egri, tölqinsimon va ritmik çiziqlar fazoviy tuzilişni belgilaş bilan birga, tasvirning içki dinamikasini ham ifodalaydi. «Qiçqiriq» asarida osmon, suv va inson qiyofasining özaro ritmik boğlanişi umumiy kompozitsion harakatni kuçaytiradi. Natijada tabiat va inson obrazi bir-biridan ajralmagan yagona hissiy muhitni hosil qiladi.

Kompozitsion jihatdan Munk köpinça markaziy obraz va uni örab turgan muhit örtasidagi psixologik munosabatga tayanadi. Inson qiyofasining joylaşuvi, orqa fonning rang yeçimi, fazoviy masofa va çiziqlar yönalişi asarning mazmunini oçişda muhim vazifa bajaradi.

Şakllarning deformatsiyalanişi ham Munk ijodining muhim badiiy xususiyatidir. Bunda anatomik yoki perspektiv aniqlikdan çekiniş tasodifiy emas, balki obrazning ruhiy mazmunini kuçaytirişga qaratilgan ongli ijodiy usul sifatida namoyon böladi. Rassom taşqi öxşaşlikdan köra, obrazning içki holatini ifodalaşni ustuvor deb biladi.

Şu jihatdan Munkning rang, çiziq va kompozitsiya bilan işlaş tajribasi keyingi ekspressionistik rangtasvirning rivojlanişiga muhim ta'sir körsatdi. Uning ijodida tasviriy vositalar mustaqil estetik elementlardan psixologik mazmunni şakllantiruvçi yaxlit tizimga aylandi.

Xulosa: Yevropa rangtasvirida impressionizmdan ekspressionizmga tomon keçgan badiiy jarayon tasviriy san'atning mazmuniy va ifodaviy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Impressionizm rang va yoruğlikning bevosita kuzatuvga asoslangan badiiy imkoniyatlarini oçib bergan bölsa, ekspressionizm uşbu imkoniyatlarni inson ruhiyati va hissiy keçinmalarini ifodalaş yönalişida rivojlantirdi.

Edvard Munk ijodi mazkur tarixiy jarayonning muhim namunalaridan biri hisoblanadi. Rassomning dastlabki asarlarida impressionistik va realistik izlanişlar kuzatilsa, keyingi ijodida rang, çiziq, şakl va kompozitsiyaning psixologik imkoniyatlariga asoslangan individual uslub şakllandi.

« kasal bola», «Qiçqiriq», «Melanxoliya», «Madonna» va «Hayot raqsi» asarlari tahlili Munk ijodida rangning hissiy mazmuni, çiziqning dinamik xususiyati va kompozitsiyaning psixologik ta'siri muhim badiiy omillar sifatida namoyon bölişini körsatadi. Ayniqsa, «Qiçqiriq» asarida rang va şaklning deformatsiyasi orqali inson ruhiyatidagi murakkab holatning umumlaştirilgan badiiy obrazi yaratilgan.

Demak, Edvard Munkni impressionizmning bevosita davomçisi sifatida emas, balki XIX asr oxiridagi yangi badiiy izlanişlarni özlaştirgan va ularni mustaqil psixologik ifoda tizimiga aylantirgan rassom sifatida baholaş maqsadga muvofiq. Uning ijodi Yevropa modernistik san'atida ekspressionistik tafakkurning şakllanişi va rivojlanişida muhim tarixiy-badiiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rewald, J. The History of Impressionism. 4th revised edition. New York: Museum of Modern Art, 1973.
2. Herbert, R. L. Impressionism: Art, Leisure, and Parisian Society. New Haven: Yale University Press, 1988.
3. House, J. Impressionism: Paint and Politics. New Haven: Yale University Press, 2004.
4. Prideaux, S. Edvard Munch: Behind the Scream. New Haven: Yale University Press, 2005.
5. Eggum, A. Edvard Munch: Paintings, Sketçes and Studies. New York: Harry N. Abrams, 1984.
6. Woll, G. Edvard Munch: Complete Paintings. London: Thames & Hudson, 2009.
7. Elger, D. Expressionism: A Revolution in German Art. Köln: Tasçen, 2002.
8. Munch, E. The Private Journals of Edvard Munch: We Are Flames Whiç Pour Out of the Earth. University of Wisconsin Press, 2005.